



V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-mart)




Xizmatlar sohasi bu - korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-mart)




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari
(1-aprel holatiga ko'ra)




Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari
(yanvar-mart)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾
(yanvar-mart)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissi
(2024-yil yanvar-mart)




¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-mart)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	5 859,1	100,0	111,4
Andijon sh	2 237,0	38,2	112,3
Xonobod sh	135,0	2,3	112,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	246,5	4,2	111,6
Andijon	345,8	5,9	111,2
Baliqchi	305,3	5,2	111,5
Bo'ston	113,8	1,9	112,4
Buloqboshi	195,8	3,3	110,3
Jalaquduq	257,5	4,4	110,8
Izboskan	271,3	4,6	110,4
Ulug'nor	99,8	1,7	111,1
Qo'rg'ontepa	288,3	4,9	110,4
Asaka	377,0	6,4	109,5
Marhamat	232,7	4,0	111,7
Shahrihon	306,0	5,2	111,0
Paxtaobod	215,3	3,7	110,5
Xo'jaobod	232,0	4,0	111,1

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-mart)

■ Hajmi, ming so'mda

■ O'sish sur'ati

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Andijon viloyati	1 722,4	109,1 %
Andijon shahar	4 638,2	109,3 %
Xonobod shahar	2 941,1	110,0 %
Oltinko'l	1 281,3	109,9 %
Andijon	1 205,6	108,8 %
Baliqchi	1 412,1	109,2 %
Bo'ston	1 458,4	110,1 %
Buloqboshi	1 277,2	108,1 %
Jalaquduq	1 292,7	108,8 %
Izboskan	1 060,7	108,3 %
Ulug'nor	1 561,9	109,7 %
Qo'rg'ontepa	1 249,1	108,3 %
Asaka	1 060,0	107,2 %
Marhamat	1 246,3	109,4 %
Shahrixon	940,9	108,5 %
Paxtaobod	1 028,9	108,1 %
Xo'jaobod	1 929,8	108,5 %

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-mart)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	5 859,1	100,0	111,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	278,3	4,7	110,2
Moliyaviy xizmatlar	1 232,6	21,1	113,2
Transport xizmatlari	1 219,5	20,8	112,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 190,0	20,3	110,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	127,9	2,2	108,6
Savdo xizmatlari	1 741,5	29,7	110,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	136,2	2,3	110,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	260,0	4,5	109,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	105,7	1,8	110,9
Ijara xizmatlari	110,6	1,9	110,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,2	2,2	109,0
Shaxsiy xizmatlar	292,4	5,0	107,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	58,6	1,0	126,5
Boshqa xizmatlar	164,6	2,8	118,6

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-mart)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, 2024- yil yanvar-mart oylarida 87,5 foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi 31,0 foizni yoki 382,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan Andijon shahrida yuqori o'sish sur'ati 122,1 foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – 97,6 foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi 553,6 mlrd soʻmni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati 113,2 foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. soʻmda	Oʻsishi surʻati (%)
Andijon viloyati	1 219,5	112,4 %
Andijon shahri	553,6	113,2 %
Xonobod shahri	36,8	112,0 %
Oltinkʻol	42,8	112,5 %
Andijon	50,7	112,2 %
Baliqchi	88,1	111,3 %
Boʻston	16,4	112,6 %
Buloqboshi	38,2	111,1 %
Jalaquduq	41,2	111,2 %
Izboskan	52,1	111,7 %
Ulugʻnor	16,6	110,6 %
Qoʻrgʻontepa	39,7	111,4 %
Asaka	57,7	111,5 %
Marhamat	50,1	112,1 %
Shahrixon	48,0	110,6 %
Paxtaobod	46,2	111,9 %
Xoʻjaobod	41,3	111,8 %

¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. soʻmda



Oʻsishi surʻati

2024- yil yanvar-mart oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to‘rt dan uch qismini, ya’ni 81,0 foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-mart)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so‘mda	O‘shishi sur‘ati
Andijon viloyati	1 741,5	110,2 %
Andijon shahri	723,9	108,8 %
Xonobod shahri	38,3	111,0 %
Oltinko‘l	89,1	111,6 %
Andijon	102,1	112,1 %
Baliqchi	73,0	111,8 %
Bo‘ston	37,1	114,0 %
Buloqboshi	55,2	111,1 %
Jalaquduq	76,5	111,2 %
Izboskan	57,3	108,9 %
Ulug‘nor	20,4	114,1 %
Qo‘rg‘ontepa	92,3	110,4 %
Asaka	113,6	108,7 %
Marhamat	63,3	113,4 %
Shahrixon	80,7	113,0 %
Paxtaobod	54,6	110,1 %
Xo‘jaobod	64,1	111,9 %


¹⁾ hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so‘mda

● O‘shishi sur‘ati




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. 2024- yilning yanvar-mart oylarida ularning ulushi 94,6 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-mart)



¹⁾ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. soʻmda


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



2024- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 260,0 mlrd so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



2024-yil yanvar-mart oylarida sogʻliqni saqlash xizmatlari hajmi 105,7 mlrd soʻmni yoki koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 1,8 % ini tashkil etdi.

Sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar-mart)

Andijon viloyati	105,7	110,9 %
Andijon shahri	39,2	111,2 %
Xonobod shahri	3,2	111,5 %
Oltinkʻol	2,7	111,9 %
Andijon	5,4	113,2 %
Baliqchi	4,3	113,7 %
Boʻston	2,5	113,1 %
Buloqboshi	3,1	111,0 %
Jalaquduq	4,4	110,9 %
Izboskan	4,9	111,0 %
Ulugʻnor	2,5	109,5 %
Qoʻrgʻontepa	7,2	109,6 %
Asaka	8,7	110,3 %
Marhamat	5,0	109,7 %
Shahrixon	5,1	110,7 %
Paxtaobod	4,0	108,4 %
Xoʻjaobod	3,5	110,8 %


■ Hajmi, mlrd. soʻmda ◆ Oʻsishi surʻati

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



2024-yil yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 136,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,3 % .ni tashkil etdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-mart)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

2024-yil yanvar-mart oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 86,4 foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-mart)

Andijon viloyati	127,9	108,6 %
Andijon shahri	31,5	110,9 %
Xonobod shahri	4,2	110,8 %
Oltink'ol	6,6	108,3 %
Andijon	9,8	109,3 %
Baliqchi	4,9	106,7 %
Bo'ston	2,8	112,1 %
Buloqboshi	4,8	106,0 %
Jalaquduq	5,5	107,7 %
Izboskan	7,4	108,2 %
Ulug'nor	2,7	107,8 %
Qo'rg'ontepa	8,2	107,9 %
Asaka	10,1	107,1 %
Marhamat	5,6	106,8 %
Shahrixon	8,3	107,0 %
Paxtaobod	5,6	106,3 %
Xo'jaobod	9,9	108,1 %


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sishi sur'ati

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 110,6 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-mart)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 15,4 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-mart)

Andijon viloyati	131,2
Andijon shahri	35,1
Xonobod shahri	3,0
Oltinko'l	6,2
Andijon	8,7
Baliqchi	4,8
Bo'ston	2,8
Buloqboshi	4,6
Jalaquduq	7,9
Izboskan	10,5
Ulug'nor	2,5
Qo'rg'ontepa	8,5
Asaka	9,4
Marhamat	7,6
Shahrixon	8,7
Paxtaobod	6,2
Xo'jaobod	4,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd. so'mda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-mart)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)

Andijon viloyati	58,6
Andijon shahri	27,1
Xonobod shahri	0,8
Oltinko'l	1,2
Andijon	2,1
Baliqchi	1,6
Bo'ston	1,8
Buloqboshi	1,2
Jalaquduq	1,5
Izboskan	2,4
Ulug'nor	1,7
Qo'rg'ontepa	3,6
Asaka	3,8
Marhamat	2,3
Shahrixon	2,3
Paxtaobod	3,0
Xo'jaobod	2,2

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi 58,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo'lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar stasionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.